

# UZBEK LAW REVIEW



VOLUME 1  
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОNUНЧИЛИГИ  
ТАҲЛИЛИ**

**UZBEKISTAN LAW REVIEW**

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

**ИЛМИЙ  
ТАҲЛИЛИЙ  
ЖУРНАЛ**

**SCIENTIFIC  
ANALYTICAL  
JOURNAL**

**НАУЧНО  
АНАЛИТИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ**

---

---

**2025  
№1**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАДДРИР:

Гулямов Сайд Саидахаррович – юридик фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.  
Хўжаев Шоҳжакон Ақмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича

фалсафа доктори.

Оқолов Омонбай – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбеке ва – ю.ф.д.. доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич – ю.ф.д., доц.

Беков Иҳтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Соҳибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазраткулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ  
ЖУРНАЛ

1/2025

Маълумот олиш учун куйидагиларга мурожаат этиш сўралади:

Гулямов Сайд Саидахаррович,  
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович  
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,  
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,  
Сайилгоҳ кӯчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон нусхаси Интернетдаги [www.library-tsul.uz](http://www.library-tsul.uz) ёки [www.lawreview.uz](http://www.lawreview.uz) сайтида жойлаштирилган.

Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси  
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация  
комиссияси журнallари рўйхатига киритилган.

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хуносалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттирамайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар химояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети руҳсати билан аманга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига мурожаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кӯчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: И. Рустамбеков  
Нашриёт мухаррири: Н. Ниязова

Техник мухаррир: Д. Козимов

Лицензия № 02-0074

Босишга руҳсат этилди – 28.03.2025

Нашриёт хисоб табори – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**Abdug'aniyev Ulug'bek Saidakbarovich**

TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyining Huquqshunoslik fanlari kafedrasi katta o'qituvchisi

**HARBIY XIZMATCHILAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI**

**Annotatsiya.** maqlolada harbiy xizmatchilarning jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarligi, jumladan, harbiy yurisdiksiyaning xususiyatlari va huquqni muhofaza qilishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyat turlari, shuningdek, ularning qurolli kuchlar intizomi va jangovar samaradorligiga ta'siri muhokama qilinadi. Qurolli kuchlarda jinoiy javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar tahlil qilinib, huquqni qo'llash amaliyotidan misollar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** jinoiy javobgarlik, harbiy xizmatchilarning jinoyatlari, huquqiy hujjatlar, huquqni muhofaza qilish, qonunchilik

**Abstract.** the article considers the criminal liability of military personnel for committing crimes, including the features of military jurisdiction and specific aspects of law enforcement. The types of crimes committed by military personnel are discussed, as well as their impact on the discipline and combat effectiveness of the armed forces. The regulatory documents regulating criminal liability in the armed forces are analyzed, and examples from law enforcement practice are given.

**Keywords:** criminal liability, crimes of military personnel, legal documents, law enforcement, legislation.

**Аннотация.** в статье рассматривается уголовная ответственность военнослужащих за преступления, в том числе особенности военной юрисдикции и особенности правоприменения. Обсуждаются виды преступлений, совершаемых военнослужащими, а также их влияние на дисциплину и боеспособность вооруженных сил. Проанализированы нормативные документы, регулирующие вопросы уголовной ответственности в вооруженных силах, приведены примеры из практики правоприменения.

**Ключевые слова:** уголовная ответственность, преступления военнослужащих, правовые документы, правоприменение, законодательство

**Kirish**

Zamonaviy jamiyatda huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan jinoiy javobgarlik masalalari bir necha bor ko'tarilgan. Bunda, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoylatlarni ko'rib chiqish ayniqsa muhimdir, chunki ular maxsus huquqiy rejimlar va harbiy majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq muayyan vaziyatlarda dolzarb bo'lib qoladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida —Bugungi global-lashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli

mojarlo va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yemoqda. Ana shunday g'oyat mas'uliyatlari vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlarimiz, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganliginill ta'kidlagan holda ularning profesional tayyorgarligi va ularning ijtimoiy ximoyasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Muhokama va natijalar

Zamonaviy jamiyatda harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligi masalalari juda muhim, chunki ular nafaqat harbiy xizmatchilarning o'ziga, balki butun jamiyatga ham ta'sir qiladi. Qurolli kuchlarda sodir etilgan jinoylatlar armiyaning jangovar samaradorligiga, jamoadagi ma'naviy muhitga va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jinoyat qonunchiligi harbiy xizmatchilarning turli qilmishlari uchun javobgarlikka tortilishi doirasini belgilaydi. Harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligi bir qancha huquq manbalariga asoslanadi. Asosiyi jinoylarlarning umumiyl tamoyillari va toifalarini belgilovchi Jinoyat kodeksidir. Harbiy Jinoyat Kodeksi ham muhim rol o'ynaydi, bunda harbiy xizmatchilarga xos bo'lgan aniq jinoiy harakatlar tasvirlangan. Massalan, harbiy xizmatni tark etish, ustav majburiyatlarini buzish, harbiy xizmatdan bo'yin tov lash. Bu jinoylatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tergov va sud jarayoni davomida hisobga olinadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi qoidalariga muvofiq, barcha jinoylar kabi harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoylar tarkibini ham jinoyatning obyekti, subyekti, obyektiv va subyektiv tomonlari tashkil etadi. O'rganilayotgan toifadagi jinoylarlarning subyekti borasida fanda turlicha qarash va yondashuvlar mavjud bo'lib, biz quyida aynan subyekt elementiga oid ba'zi ilmiy qarashlarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga jinoylarlarning subyekti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo'shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining davlat chegarasini himoya qilish qo'mitasi), Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa vazirlik va idoralarning harbiy bo'linmalari harbiy xizmatchilar, shuningdek, ularda harbiy yig'lnarni o'tayotgan shaxslar bo'lishi mumkin. Shaxsni harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoylar subyekti deb hisoblash uchun unga qonunga muvofiq —harbiy xizmatchill maqomi berilgan, harbiy xizmat boshlangan, davom etaetgan va tugatilmagan bo'lishi lozim. Harbiy xizmatning mazkur aspektlari "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunda aks etgan bo'lib, uning 27-moddasiga muvofiq, haqiqiy harbiy xizmatda bo'lishning boshlanishi: muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan chaqiriluvchilar hamda zaxiradagi ofitserlar uchun harbiy qismga jo'nash maqsadida mudofaa ishlari organida hozir bo'lgan kun; kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirgan shaxslar uchun harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi kontrakt kuchga kirgan kun; oliy harbiy ta'lif muassasalariga, shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning o'qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan ta'lif muassasalariga o'qishga kirgan chaqiriluvchilar,

harbiy xizmatga majburlar uchun — tegishli ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan kun; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan harbiy lavozimga tayinlangan shaxslar uchun — tegishli farmon, qaror èki farmoyish imzolangan kun hisoblanadi. Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilishi èki iste'foga chiqarilishi munosabati bilan harbiy qism komandirining buyrug'iga binoan shaxsiy tarkib ro'yxatidan chiqarilgan kun harbiy xizmatchi uchun harbiy xizmatda bo'lishning tugashi hisoblanadi.

Yaqin vaqtlar ichida qo'shni mamlakat Qozog'istonda sodir etilayotgan ommaviy tartibsizliklar va namoyishlar jarayonida harbiy xizmatchilar va ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilayotgan bir qator jinoyatlar va ularning huquqiy oqibatlari og'ir oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bunga misol tariqasida fuqarolar tomonidan harbiy texnikalar, qurollar va boshqa turdag'i maxsus ximoya vositalarini noqonuniy egallanishi, harbiy xizmatchilarni harbiy harakatlarda ishtirok etishini oldini olish maqsadida ularning yaqin qarindoshlari va oila a'zolariga nisbatan o'tkazilgan ta'ziqlar, ayniqsa ijtimoiy toifa obektlariga va alohida toifalangan obektlarga bo'lgan qo'rolli hujumlar va boshqa holatlar harbiy xizmatchining jinoyat huquqida alohida subekt bo'la turib jabrlanuvchi sifatida ishtirokchilikda agressiyaga uchrayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqta' nazardan mazkur tahdidlar qo'shni mamlakatda sodir etilganligi xavfi bizning mamlakatimiz chetlab o'tadimi? Mazkur turdag'i jinoyatlar uchun mamlakatimiz qonunchiligidagi qanday turdag'i javobgarlik turlari belgilangan? Amalagi jinoyat qonuni normalari hozirgi zamonaviy tahdidlarga qay darajada javob bera oladi va shu kabi bir qator savollar o'zo'zidan ilmiy tadqiqotlarning obektiga aylanishi tabiiy. Yuqorida keltirilgan savollarning amaliy yechimlarini amaldagi jinoyat qonunchiligmizda belgilangan javobgarlik turlari, jinoyat subyektlarining huquqiy maqomi, jinoyatlarda ishtirokchilik kabi masalalar ilmiy tahlillar asosida o'rganilganida bir qator muammolar mayjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatda harbiy xavf yoki favqulotda holat e'lon qilinligi holatida davlat organlarining mansabdor shaxslari ga qaratilgan ruhiy yoki jismoniy taz'yiqlar birinchi navbatda harbiy xizmatchilar va ularning yaqin qarindoshlariga qaratilganligi, shuningdek harbiy xizmatchilarning sog'ligi va hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar qonun bilan harbiy xizmatchining jinoyat huquqining alohida subekti sifatida inobatga olingen holda muhofaza qilinmagan. Shuningdek mazkur turdag'i jinoyatlar umumiylasosda shaxsning sog'ligiga va hayotiga qarshi jinoyat turlari bilan tartibga solingan.

285-modda birinchi qismi dispozitsiyasini tahlil qilar ekanmiz, bir muammoga duch kelamiz. Xususan, unda "sog'liqning buzilishiga sabab bo'lgan badanga yengil shikast yetkazish yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish" jumlesi qo'llanilgan. Bu o'rinda "sog'liqning buzilishiga sabab bo'lgan badanga yengil shikast yetkazish" jumlesi Jinoyat kodeksi 109-moddasi qoidalaridan kelib chiqqan holda to'g'ri qo'llanilgan. Ammo ushbu jumladan so'ng "yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish" deyilgan. Bu o'z-o'zidan o'rtacha og'ir shikast yetkazish sog'liqning buzilishiga sabab bo'lsa, degan ma'noni anglatadi. Holbuki Jinoyat kodeksi 105- moddasida o'rtacha og'ir shikast yetkazish sog'liqning buzilishiga sabab bo'lishi haqida hech narsa

deyilmagan. Bundan tashqari Jinoyat kodeksi 285-moddasi birinchi qismidagi mazkur jumlaning o'zbek tilidagi tahriri uning rus tilidagi tahriri bilan bir xil emas. Uning rus tilidagi tahririda "prichinenii legkogo telesnogo povrejdeniya s rasstroystvom zdorovyia ili sredney tyajesti telesnogo povrejdeniya" deyilgan. Bizningcha, moddaning rus tilidagi tahriri to'g'ri hamda aniq bayon etilgan. Shu sababli, yuqorida tushunmovchilikni bartaraf etish va qonunning o'zbek hamda rus tillaridagi tahririni bixilashtirish maqsadida 285-moddaning birinchi qismiga "sog'liqning buzilishiga sabab bo'lgan badanga yengil shikast yetkazish yoki" so'zlaridan so'ng "badanga" degan so'zni qo'shish lozim. Moddaning to'liq tahrirdagi matnini dissertatsiyamizning xulosa qismida bayon etamiz. Ustavga zid zo'ravonlik harakatlari jabrlanuvchining sog'lig'iha har xil og'irlikdagi shikast yetkazish bilan bog'liq bo'lib, mustaqil jinoyatlar tarkibini vujudga keltirsaga, qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatalish yo'li bilan amalga oshiriladi (jabrlanuvchini bog'lash, uyqu dori berish, uning ixtiyoriga xilof ravishda muayyan joyda saqlab turish, aldov yo'li bilan shaxsni u kirishni xohlamaydigan xonadonga olib kirib saqlash va hokazolar).

Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni bir necha toifalarga bo'lish mumkin. Birinchi toifaga harbiy xizmatga qarshi jinoyatlar, masalan, dezertirlik, bo'linmani ruxsatsiz tark etish va harbiy intizomning boshqa buzilishi kiradi. Ikkinci toifaga shaxsga qarshi jinoyatlar, jumladan, qotillik, badanga og'ir shikast yetkazish va boshqa jinoyatlar kiradi. Uchinchi toifaga jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, shu jumladan quroq va giyohvand moddalar bilan noqonuniy muomala qilish kiradi. To'rtinchchi toifaga davlat institutlariga ishonchni susaytiruvchi va armiyadagi ichki jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korruption jinoyatlar kiradi. Harbiy xizmatchilar bilan bog'liq jinoyat ishlaring muhim xususiyati - harbiy prokuratora va harbiy sudlarning mavjudligi. Ushbu organlar aniq vakolatlarga ega va harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlarini va harbiy xizmatchilarning huquqiy holatini hisobga olishlari kerak. Bunday hollarda protsessual harakatlar yuqori malaka va huquqiy va amaliy jihatlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Bundan tashqari, tergov va sud jarayoni davomida harbiy xizmatchilarning huquqlarini hurmat qilish muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilik hujjalari muvofiq, hokimiyat vakillari u yoki bu davlat funksiyalarining amalga oshirilishiga javobgar shaxslar hisoblanadi. Huquqbazarliklarga qarshi kurashish va ommaviy tartibsizliklar chog'ida huquqni muhofaza qilish organi xodimlari va harbiy xizmatchilarning hayoti va sog'lig'i doimo xavf ostida bo'ladi. Hokimiyat vakillari o'z qonuniy faoliyatini to'la to'kis amalga oshirishi uchun huquqiy kafolat muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda shu darajaga borib yetdiki ayrim fuqarolar hokimiyat vakillarining qonuniy harakatlariga ochiqdan ochiq to'sqinlik qilish va zo'rlik ishlatalish holatlarini sodir etmoqda. Hokimiyat vakiliga nisbatan zo'ravonlik qo'llash nafaqat ularning hayoti va sog'lig'i, balki hokimiyat, boshqaruva jaamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga ham putur yetkazadi. Bu esa davlat hokimiyatining va mamlakatdagi huquq-tartibotning zaiflashishiga olib keladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 104-, 105-moddalarida o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik mavjud. Lekin, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Ple-numining 1999-yil 30-apreldagi — O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talontoroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risidall gi 30-sonli Qarorida — Hayoti yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lмаган zo‘rlik deganda, yengil tan jarohati yetkazishni tushunish lozim. Bunday zo‘rlik jabrланuvchiga jismoniy azob beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qo‘yuvchi harakatlarda ifodalani-shi mumkinlligi ko‘rsatilgan. Shu sababli, amaldagi Jinoyat Kodeksining 104-, 105-moddalarida xizmat vazifasini bajayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organning xodimi yoki harbiy xizmatchilariga hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lмаган zo‘rlik ishlatalishi bilan tugallangan jinoyat deb topilishi, ya‘ni oqibatda tan jarohati kelib chiqish yoki chiqmaslididan qat‘iy nazar jinoyat deb topilishi tartibga solinmagan (Mazkur moddalarda mazmunan tartibga solishning imkonи ham mavjud emas, sababi mazkur moddalar faqatgina tan-jarohati bilan bog‘lik bo‘lgan jinoi hodisalarni tartibga soladi).

Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar armiyadagi ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Intizomning buzilishi qo‘mondon va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi ishonchni buzadi, bu jangovar tayyorgarlik va umumiy missiya samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday jinoyatlar harbiy xizmatchilar o‘rtasida norozilik va parchalanishni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa pirovardida davlat xavfsizligiga salbiy ta’sir qiladi. Harbiy xizmatchilarning jinoi javobgarligi tizimi doimiy yangilanish va takomillashtirishni talab qiladi. Armiyadagi jinoyatchilik darajasini pasaytiradigan samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda harbiy prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish, komandirlar va harbiy xizmatchilarni huquqtartibot asoslariga o‘rgatish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash amaliyotini faol joriy etish kiradi. Tergov va sud jarayonidagi ochiqlik va shaffoflik harbiy huquq tizimi-ga ishonchni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning jinoyatlar uchun jinoi javobgarligi kompleks yondashuvni talab qiluvchi muhim mavzu bo‘lib qolmoqda. Huquqiy normalarni to‘g‘ri tushunish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Shundagina qurolli kuchlarda tartib va intizomni ta‘minlash, shuningdek, jamiyat darajasida hokimiyat institutlariga ishonchni saqlash mumkin bo‘ladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- 1.Muxitdinov, S. (2024). HARBIY MANSABDORLIK JINOYATLARI TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(3).
- 2.MIRZAEV, T., & QOBULOV, R. HARBIY XIZMATNI O‘TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR.
- 3.Алимов, М. (2023). Процессуальные проблемы досудебного производства в военном уголовном процессе. Реформы в сфере подготовки юридических

кадров в Узбекистане: анализ результатов и перспективные задачи, 1(1), 119-127.

4.Obidjonov, A. R. O. G. L. (2022). JINOYAT PROTSESSIDA TERGOVGA TEGISHLILIKNING AHAMIYATI VA UNING XALQARO HAMDA MILLIY HUQUQIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 474-481.

5.Данилов, П. С. (2016). Преступления против военной службы в дореволюционном законодательстве России: историко-правовой анализ. Russian Journal of Economics and Law, (1 (37)), 89-96.

6.Изосимов, В. С., & Родионова, Ю. В. (2015). Правовой опыт стран романо-германской группы в области установления ответственности за коррупционные преступления, в том числе за незаконное участие в предпринимательской деятельности. Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России, (1 (29)), 87-90.